TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

RAXMONOV AZIZBEK ASQARALI O‘G‘LI

PAXTA G‘ARAMINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 677.026.22.001.76

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD) по техническом наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Raxmonov Azizbek Asqarali o‘g‘li
Paxta g‘aramini shakllantirish jarayonini takomillashtirish..... 3

Рахмонов Азизбек Аскарали угли
Совершенстование процесса образования бунтования хлопка-сырца..... 23

Raxmonov Azizbek
Improvement of the cotton stack formation process..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..... 50

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

RAXMONOV AZIZBEK ASQARALI O‘G‘LI

PAXTA G‘ARAMINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiyaa komissiyasida B2025.4.PhD/T6231 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va “Zionet” Axborot-ta’lim portalida (www. Zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ruzmetov Mansurbek Erkinovich** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori **(**PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich** texnika fanlari doktori, professor
	Sarimsakov Olimjon Sharipjonovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzah Politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «10» noyabr soat «14^{00}» dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.(Manzil:100100,Toshkent sh.,Shohjahon-5,tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17; e-mail: pochta@ ttesi.uz, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 323 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 23 oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 23 noyabr № 317 -raqamli reyestr bayonnomasi).

X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi ishlatilishi bo‘yicha umumiy tola miqdorining 55-60 foizini tashkil etadi. Asosiy paxta yetishtiruvchi davlatlar, jumladan, AQSH, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlarda zamonaviy axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlaridan to‘liq foydalangan holda, ilmiy yondashuv asosida, paxtani saqlash, quritish, tozalash va jinlash jarayonlaridagi mavjud texnologik muammolarni yechish, texnologik uskunalarni yangi samaradorligi yuqori, energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda.[1] Dunyo miqyosida 24 mln. tonna paxta yetishtirilishi va uning bir qismi namligi yuqori paxta bo‘lishini hisobga olsak, yetishtirilgan paxtadan sifatli tola olish uchun uni saqlashni ratsional rejimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Jahon miqyosida paxtani saqlash jarayonining texnik va texnologik yechimlarini takomillashtirish, shuningdek, ushbu yo‘nalishning ilmiy-metodik asoslarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari izchil olib borilmoqda. Paxta tozalash korxonalarida tayyorlangan mahsulotlar sifat ko‘rsatkichi g‘aramlash va saqlash texnologiyasining noto‘g‘ri tashkil etilishi sifatli tola ishlab chiqarish imkoniyatini pasaytirmoqda. Shuning uchun paxta g‘aramini shakllantirish jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo‘nalishda paxta xomashyosini g‘aramlash va saqlash jarayonida shamollatish tunnelini shakllantirish qurilmasi konstruksiyasini takomillashtirish, yangi texnik yechimlarni ishlab chiqish hamda ularning maqbul texnologik parametrlarini belgilash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, paxta tozalash korxonalarida mavjud g‘aramlash va saqlashning ichki imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ularning ish rejimlarini optimallashtirish va texnik samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda zamonaviy fan va texnika yutuqlarini inobatga olgan holda paxta tozalash korxonalaridagi texnika va texnologiyalarni modernizatsiyalashda va yangilashda hamda ularni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Respublikamizda keng ko‘lamli yangi iqtisodiy tizimlarni tatbiq etilishi, jumladan, to‘qimachilik klasterining barpo etilayotganligi, to‘qimachilik korxonalari uchun asosiy xomashyo hisoblangan paxta tolasini ishlab chiqaruvchi paxta tozalash korxonalari oldiga bir qator talablarni qo‘ymoqda. Eng asosiy talablardan biri paxtani sifatli saqlash, paxta tolasi sifati va miqdorini oshirish bo‘lib, unga faqat iqtisodiy tejamkor, paxta yetishtiruvchi davlatlarni erishgan yutuqlari va tajribalarini inobatga olgan holda, keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni[2], 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini

[1] Cotton: World Statistics. https://www.ICAC.org;https://www.statista.com

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PQ-16-sonli paxta-to‘qimachilik klasterlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-son “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi VM-398-son “Paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash korporatsiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II - “Energetika, energiya va resurslarni tejash” ustuvor ilmiy yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Respublikamizda paxtani g‘aramlash va saqlashda mahsulotning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish yo‘nalishida keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, F.V.Xetagurova, G.A.Tixomirov, B.S.Suslin, N.B.Sorkin, B.A.Buranov, V.A.Gortman, V.D.Xmirov, M.Y.Aliyev, B.G.Qodirov, D.Yakubov, A.P.Parpiyev, M.T.Xodjiyev, A.M.Salimov, B.A.Bayxanov, M.E.Ruzmetov, U.S.Tadjiyev, M.M.Ismatova va boshqalar paxtani saqlash bo‘yicha ilmiy ishlar o‘tkazganlar.

O‘tkazilgan tadqiqot ishlariga qaramasdan, paxta g‘aramida tunnel shakllantirish va shamollatish tizimi yetarli darajada o‘rganilmagan, tola sifatini saqlagan holda paxta g‘aramiga tunnel ochish va shakllantirish muammosi to‘liq o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, ID-I-012 — “Paxtaning boshlang‘ich sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda samarali texnologiyasini yaratish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani g‘aramlash va saqlash jarayonida uning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qoluvchi havo tunneli hosil qiluvchi qurilma konstruksiyasini takomillashtirish, paxta g‘aramining kuchlanish holatini, qurilmaning xavfsiz va maqbul parametrlarini tajribaviy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtani g‘aramlash jarayonida uni shamollatish uchun havo tunneli hosil qiluvchi hamda paxtaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan qurilma konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxta g‘aramini qalin devorli silindr ko‘rinishida modellashtirish asosida uning kuchlanish holatini tadqiq etish, g‘aramlash xavfsizligi koeffitsiyentini kiritish va havo tunnelini shakllantirish uchun uning qiymatini asoslash;

paxta g‘aramining geometrik va fizik parametrlarini hamda maxsus koeffitsiyentini hisobga olgan holda paxta qatlamidagi normal, radial va aylanma

kuchlanishlarni aniqlashga mo‘ljallangan soddalashtirilgan analitik bog‘lanishlarni olish;

tajribani matematik rejalashtirish usuli asosida tunnel hosil qiluvchi qurilma parametrlarining paxta iflosligi va tola nuqsonlariga ta’sirini ifodalovchi regressiya tenglamasini olish hamda uning adekvatligini baholash;

ilmiy tadqiqot ishining ishlab chiqarish korxonasiga joriy etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida paxta g‘aramini shamollatish tunneli olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida paxta g‘aramiga takomillashtirilgan tunnel shakllantirish qurilmasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida paxta tolasi va chigitning tabiiy xususiyatlarini o‘rganishda zamonaviy o‘lchov asboblaridan hamda uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtani g‘aramlash jarayonida uni shamollatish uchun havo tunneli hosil qiluvchi, paxtaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan va tashqi qismiga qayishqoq material o‘rnatilgan qurilma konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

paxta g‘aramini qalin devorli silindr ko‘rinishida modellashtirish orqali uning kuchlanish holatini tadqiq etish asosida g‘aramlash xavfsizligi koeffitsiyenti birinchi marta taklif etilgan hamda havo tunnelini shakllantirishda ushbu koeffitsiyentning qiymati asoslab berilgan;

paxta g‘aramining geometrik va fizik parametrlarini, shuningdek, kiritilgan maxsus koeffitsiyentini k_r hisobga oluvchi paxta qatlamidagi normal, radial va aylanma kuchlanishlarni aniqlash uchun amaliy hisoblashlarga moslashtirilgan soddalashtirilgan analitik bog‘lanishlar olingan;

tajribani matematik rejalashtirish usuli yordamida g‘aramdagi paxtaning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillar bog‘lanishi asosida g‘aramning balandligi, qayishqoq material qalinligi va havoning bosimini optimal qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari g‘aramlangan paxtaga tunnel ochish jarayonida chigitning mexanik shikastlanishi qo‘lda tunnel ochishda o‘rtacha 5,94% ni, OBT rusumli mashinada tunnel ochilganda 6,93% ni tashkil etdi. Chigitga mexanik ta’sir yetmasdan avvalgi, ya’ni tunnel ochish jarayonidan avval shikastlanish darajasi o‘rtacha 1,34% ni tashkil etishi aniqlangan;

paxta g‘aramida shamollatish tunnelini shakllantirishning takomillashtirilgan resurstejamkor texnologiyasi va qurilmasi ishlab chiqilgan;

paxta g‘aramiga tunnel shakllantirish jarayonida mahsulot sifatiga ta’sir o‘tkazadigan omillar kamayishi hisobiga mahsulotning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlar zamonaviy usullar hamda aniqligi yuqori o‘lchash vositalari asosida olib borilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, nazariy hisob-kitoblar bilan tajribaviy natijalar o‘rtasidagi moslik, olib borilgan ilmiy ishlar negizida takomillashtirilgan

tunnel shakllantirish qurilmasining tajriba-sinov jarayonlarida samarali natijalar ko‘rsatgani hamda ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta g‘aramining kuchlanish holatini nazariy modellashtirish, g‘aramlash xavfsizligi koeffitsiyentini asoslash, paxta qatlamidagi kuchlanishlarni aniqlovchi analitik bog‘lanishlar hamda tunnel shakllantirish jarayonining regressiya modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta g‘aramida shamollatish tunnelini shakllantiruvchi resurstejamkor qurilma va undan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Taklif etilgan qurilma paxta va chigitning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlash, mexanik shikastlanishni, mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta g‘aramiga resurstejamkor takomillashtirilgan tunnel shakllantirish qurilmasini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida: tunnel shakllantirish qurilmasi “GTG AGRO” MCHJ tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida joriy etilgan (O‘zto‘qimachiliksanoat uyushmasining 2026-yil 22-iyundagi 01/06-897-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tunnel shakllantirish qurilmasining amaldagi va tajriba natijalarini solishtirma sinov ishlarida II-sanoat navli paxtaga tunnel shkllantirish jarayonida elektr-energiya sarfini yillik 1794 kVt ga kamaytirishga va tolaning ifloslik va nuqsonlar miqdorini 0,63-0,92 % ga kamayishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy texnik anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro, 7 ta Respublika konferensiyalarida va ilmiy seminarlarda muhokama qilinib chop etilgan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan 7 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan. Mazkur maqolalarning 3 tasi respublika miqyosidagi, 4 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishning maqsadi va masalaning qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida g‘aram maydonlariga tunnel hosil qilish texnologiyasi hamda unda ishlatiladigan mashina va mexanizmlar tahlili, paxtani g‘aramlash va

saqlash bo‘yicha chet el texnologiyasi, paxtani g‘aramlash va saqlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“G‘aram maydonlariga tunnel hosil qilish jarayonining nazariy tadqiqoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida paxta g‘aramining bosimi ta’siridagi tunnel shakllantirgich mustahkamligining nazariy tahlili, tashqi bosim ta’siridagi kritik yuklar hisobi tahlili, takomillashtirilgan tunnel shakllantiruvchi qurilmaning regressiya modelini qurish hisob ishlarining natijalari keltirilgan.

Paxta g‘arami tashqi ko‘rinishi bo‘yicha yuqori qismi egri chiziqli yuzaga ega bo‘lgan, markaziy qismida tunnel mavjud bo‘lib, u massiv prizmatik jismdan iborat. Hisoblashni soddalashtirish maqsadida uni silindrsimon jism deb qabul qilamiz.


1-rasmda tashqi radiusi r_1 va ichki radiusi r_2 bo‘lgan qalin devorli silindrning ko‘ndalang kesimi tasvirlangan. Silindr tashqi tomondan p_1 bosim, ichki tomondan esa p_2 bosim ta’sirida bo‘ladi.Tashqi p_1 bosim paxta g‘arami shakllantirilganda hosil bo‘lgan paxta xomashyosining og‘irligi ta’sirida yuzaga keladi. Ushbu bosim paxtaning zichligi ρ, g‘aram balandligi h va erkin tushish tezlanishi g ga bog‘liq bo‘lib, quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$p_1 = \rho g h, \quad kH/m^2 \qquad (1)$$

Ichki bosim sharti quyidagicha boladi:


$$p_2 \geq k_p p_1 kH/m^2 \qquad (2)$$

Bu yerda k_p - havo tunnelini shakllantirish jarayonida g‘aramni hosil qilishdagi xavfsizlik koeffitsiyenti bo‘lib, uning qiymati 1,4–1,5 ga teng deb qabul qilinadi.



1-rasm. Tashqi radiusi $r_1$va ichki radiusi r_2 bo‘lgan, tashqi p_1 hamda ichki p_2 bosimlar ta’siridagi qalin devorli silindrning ko‘ndalang kesimi

Ichki p_2 bosim esa havo bosimi bilan to‘ldirilgan elastik elementdan iborat maxsus havo kamerasi tomonidan hosil qilinadi. Silindrdan o‘lchamlari d_r, d_z va $rd\varphi$ ga teng bo‘lgan egri chiziqli olti qirrali element ajratib olinadi (2-rasm).



2-rasm. Silindrdan ajratib olingan, o‘lchamlari dr, dz va $rd\varphi$ ga teng bo‘lgan egri chiziqli olti qirrali element

Silindrning o‘q bo‘ylab kesimlarida (elementning ABCD tekisligida) o‘q simmetriyasi tufayli urinma (kesuvchi) kuchlanishlar mavjud bo‘lmaydi va faqat normal aylanma (halqasimon) kuchlanishlar σ_t ta’sir qiladi. Silindrning ko‘ndalang kesimlarida ham urinma kuchlanishlar radial yo‘nalishda z koordinatasiga bog‘liq emasligi sharti asosida nolga teng deb qabul qilinadi. Ko‘ndalang kesimlarda silindr o‘qi bo‘ylab tashqi kuchlar ta’sir etgan hollarda normal o‘q bo‘ylab kuchlanishlar σ_z mavjud bo‘lishi mumkin. Ushbu kuchlanishlar silindrning ham o‘qi bo‘ylab, ham radiusi bo‘yicha o‘zgarmas deb qabul qilinadi. Elementga ta’sir etayotgan kuchlarni radius yo‘nalishiga proyeksiyalab, quyidagi muvozanat sharti hosil qilinadi:

$$(\sigma_r + d\sigma_r)(r + dr)d\varphi dz - \sigma_r r d\varphi dz - \sigma_t dr dz * sind\varphi = 0\,,$$

burchak qiymati kichik bo‘lganda $sind\varphi \cong d\varphi$, то


$$(\sigma_r + d\sigma_r)(r + dr)d\varphi dz - \sigma_r r d\varphi dz - \sigma_t dr dz d\varphi = 0 \qquad (3)$$

Yuqori tartibli cheksiz kichik miqdorlarni hisobga olmasdan, muvozanat tenglamasi quyidagi ko‘rinishga keladi. $(d\sigma_r * dr)$,

quyidagi ifodani hosil qilamiz. $\sigma_r + \frac{d\sigma_r}{dr} r - \sigma_t = 0$ (4)

yoki $\frac{d}{dr}(\sigma_r r) - \sigma_t = 0$ (5)

Muvozanat sharti (2) ikkita noma'lum kuchlanish — radial kuchlanish σ_r va aylanma kuchlanish σ_t ni aniqlash uchun faqat bitta tenglama bilan ifodalangan. Shu sababli deformatsiyalarni ham ko‘rib chiqish zarur. Buning uchun silindrning radial va aylanma yo‘nalishlaridagi nisbiy cho‘zilishlar, ya’ni $\varepsilon_r$va ε_t deformatsiyalari qaraladi hamda ular u siljish (ko‘chish) orqali ifodalanadi (3-rasm).



3-rasm. Silindr yuklanishdan oldin (AB) va keyin (A′B′) radial yo‘nalishda ajratib olingan $AB = dr$ elementar kesma

Buning uchun radial yo‘nalishda ajratib olingan $AB = d_r$elementar kesmani ko‘rib chiqamiz. A nuqta u miqdorga, B nuqta esa $u + du$ miqdorga siljiydi. Shunda elementning yangi uzunligi $dr + du$ ga teng bo‘ladi, uning nisbiy cho‘zilishi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon_r = \frac{du}{dr} \qquad (6)$$

Aylanma yo‘nalishdagi nisbiy cho‘zilish ε_t esa A nuqtadan o‘tuvchi yoyning nisbiy cho‘zilishiga teng bo‘lib, yuklanishdan so‘ng u A' nuqtadan o‘tuvchi yangi holatni egallaydi. Shuning uchun u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\varepsilon_t = \frac{2\pi(r+u) - 2\pi r}{2\pi r} = \frac{u}{r} \qquad (7)$$

Umumlashtirilgan Guk qonuniga muvofiq, σ_r, σ_t va σ_z normal kuchlanishlari ε_r va ε_t nisbiy deformatsiyalari bilan quyidagi tenglamalar orqali ifodalanadi:

$$\left.\begin{aligned} \varepsilon_r &= \frac{1}{E}[\sigma_r - \mu(\sigma_t + \sigma_z)] = \frac{du}{dr}\ , \\ \varepsilon_t &= \frac{1}{E}[\sigma_t - \mu(\sigma_r + \sigma_z)] = \frac{u}{r} \end{aligned}\right\} \qquad (8)$$

Radial va aylanma yo‘nalishlardagi ε_r hamda ε_t nisbiy deformatsiyalari bitta u siljish funksiyasi orqali ifodalanganligi sababli, ular moslik (uyg‘unlik) shartini qanoatlantiradi. Mazkur shart ε_t ni r radius bo‘yicha differensiallash orqali quyidagi ko‘rinishda hosil qilinadi:

$$\varepsilon_t = \frac{u}{r}; \quad \frac{d\varepsilon_t}{dr} = \frac{\frac{du}{dr}r - u}{r^2} = \frac{1}{r}\left(\frac{du}{dr} - \frac{u}{r}\right) = \frac{1}{r}(\varepsilon_r - \varepsilon_t) \qquad (9)$$

Agar (8) tenglamadagi ε_r va $\varepsilon_t$qiymatlari (8) ifodalar bilan almashtirilsa hamda hosil bo‘lgan ifodadagi $(\sigma_r - \sigma_t)$ ayirmasi o‘rniga (4) tenglamadagi ifoda qo‘yilsa, zarur matematik o‘zgartirishlardan so‘ng quyidagi ikkinchi differensial tenglama hosil bo‘ladi:

$$\frac{d\sigma_t}{dr} + \frac{d\sigma_r}{dr} = 0 \qquad (10)$$

(4) va (10) tenglamalarni birgalikda yechish uchun avval (3) tenglama r bo‘yicha differensiallanadi, so‘ngra hosil bo‘lgan tenglamaga (10) dan $\frac{d\sigma_t}{dr}$ ning qiymati qo‘yiladi. Natijada differensial tenglama quyidagi yakuniy ko‘rinishni oladi:

$$\frac{d^2\sigma_r}{dr^2}+\frac{3}{r}\frac{d\sigma_r}{dr}=0 \qquad (11)$$

Mazkur differensial tenglamaning yechimini $\sigma_r = C_1 + \frac{C_2}{r^2}$, integrallash doimiylari C_1 va C_2quyidagi chegaraviy shartlar $(\sigma_r)_{r=r_1} = -p_1;\quad (\sigma_r)_{r=r_2} = -p_2$ asosida, integrallash doimiylari quyidagicha aniqlanadi:

$$C_1 = \frac{p_2 r_2^2 - p_1 r_1^2}{r_1^2 - r_2^2}; \qquad C_2 = -\frac{(p_2 - p_1) r_1^2 * r_2^2}{r_1^2 - r_2^2} \qquad (12)$$

Integrallash doimiylarining (12) dagi qiymatlarini $\sigma_r = C_1 + \frac{C_2}{r^2}$ tenglamaga qo‘yish orqali radial kuchlanish σ_r va aylanma kuchlanish σ_t uchun yakuniy ifodalar hosil qilinadi:

$$\left.\begin{aligned}\sigma_r &= \frac{p_2 r_2^2 - p_1 r_1^2}{r_1^2 - r_2^2} - \frac{(p_2 - p_1) r_1^2 * r_2^2}{r^2 (r_1^2 - r_2^2)};\\ \sigma_t &= \frac{p_2 r_2^2 - p_1 r_1^2}{r_1^2 - r_2^2} + \frac{(p_2 - p_1) r_1^2 * r_2^2}{r^2 (r_1^2 - r_2^2)}\end{aligned}\right\} \qquad (13)$$

(13) bog‘lanishlarni amaliy jihatdan qo‘llash va ularni ma’lum darajada soddalashtirish maqsadida paxta g‘aramining aniq fizik-geometrik parametrlarini hisobga olamiz.

Paxta zichligi uning naviga qarab o‘zgaradi. O‘rta va uzun tolali paxtaning I–II hamda III–IV navlari uchun zichlik $\rho = 170 - 250\ kg/m^3$oralig‘ida bo‘ladi. Ushbu zichlik qiymatlariga mos ravishda, balandligi $h = 7 - 8\ m$ bo‘lgan paxta g‘aramida paxta massasining hosil qiladigan ρ bosimi (1) formula asosida minimal qiymati: $p_1 = 11673{,}9$ Pa=11,67 kPa va maksimal qiymati: $p_1 = 19620$ Pa=19,62 kPa aniqlanadi.

Shakllantirilgan paxta g‘aramining geometrik parametrlaridan kelib chiqib, uning konstruktiv elementlari o‘lchamlarini taxminan quyidagicha qabul qilish mumkin: g‘aram tashqi yuzasi (konturi)ning egilish radiusi $r_1 = 7{,}2 - 7{,}6\ m$ havo tunnelining yuqori qismi egilish radiusi esa $r_2 = 0{,}4 - 0{,}5\ m$ ni tashkil etadi.

r_1 va r_2 radiuslarining nisbatini maxsus k_r koeffitsiyenti orqali ifodalaymiz:

$$k_r = \frac{r_1}{r_2} \qquad (14)$$

Kiritilgan (3) va (14) koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda, (14) formulalar amaliy hisob-kitoblarda foydalanish uchun qulay bo‘lgan quyidagi ko‘rinishni oladi.

$r_1 = 7{,}2 - 7{,}6$ м va $r_2 = 0{,}4 - 0{,}5$ м qiymatlarida k_r koeffitsiyenti 14,4–19 oralig‘ida o‘zgaradi.

$$\left.\begin{aligned}\sigma_r &= \frac{p_1\left(k_p - k_r^2\right)}{k_r^2 - 1} - \frac{p_1\left(k_p - 1\right)k_r^2 r_2^2}{r^2 (k_r^2 - 1)}\\ \sigma_t &= \frac{p_1\left(k_p - k_r^2\right)}{k_r^2 - 1} + \frac{p_1\left(k_p - 1\right)k_r^2 r_2^2}{r^2 (k_r^2 - 1)}\end{aligned}\right\} \qquad (15)$$

Endi $r = r_2$ deb qabul qilinsa, havo tunneli gumbazining bevosita yaqinidagi σ_r va σ_t kuchlanishlarni hisoblash mumkin bo‘ladi. Paxta g‘aramining aynan shu qismi elastik qobiq va mobil metall karkas ichki p_2 bosimi olib tashlanganidan keyin tunnel shaklining saqlanib qolishini ta’minlaydigan eng mas’uliyatli zona hisoblanadi.

Shunday qilib, (15) bog‘lanishlarda r_1 va r_2 deb qabul qilinganda, ular quyidagi yakuniy ko‘rinishni oladi:

$$\sigma_r = \frac{p_1\left(k_p - k_r^2\right)}{k_r^2 - 1} - \frac{p_1\left(k_p - 1\right)k_r^2}{k_r^2 - 1} = \frac{p_1\left(k_p - k_r^2 - k_p k_r^2 + k_r^2\right)}{k_r^2 - 1} = \frac{p_1 k_p (1 - k_r^2)}{k_r^2 - 1} = -k_p p_1,$$

ya’ni

$$\left.\begin{aligned} \sigma_r &= -k_p P_1; \\ \sigma_t &= \frac{p_1\left[k_p + k_r^2(k_p - 2)\right]}{k_r^2 - 1} \end{aligned}\right\} \qquad (16)$$

Normal kuchlanishlarni (16) formulalar bo‘yicha quyidagi boshlang‘ich ma’lumotlar asosida hisoblaymiz: $p_1 = 20$ кПа, $k_p = 1{,}4$; $k_r = 19$.

Bunda radial va aylanma kuchlanishlar quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\sigma_r = -28\ kPa; \qquad \sigma_t = 11{,}96\ kPa$$

Ko‘rib chiqilayotgan yuzada faqat σ_r va σ_t normal kuchlanishlar mavjud bo‘lib, urinma kuchlanishlar mavjud emas. Shu sababli ushbu yuza bosh tekislik hisoblanadi:

$$\sigma_r = \sigma_1 \text{ va } \sigma_t = \sigma_2,\ \sigma_z = \sigma_3 = 0.$$

Demak, mazkur holatda tekis kuchlanish holati yuzaga keladi va kuchlanish intensivligi σ_i quyidagi formula orqali aniqlanadi [3]:

$$\sigma_i = \sqrt{\sigma_1^2 - \sigma_1 * \sigma_2 + \sigma_2^2} \qquad (17)$$


Berilgan hisobiy holat uchun: $\sigma_i = 24{,}33\ kPa$.

(16) formulalar bo‘yicha olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, σ_t ni aniqlashda quyidagi koeffitsiyentni kiritish maqsadga muvofiq:

$$K = \frac{\left[k_p + k_r^2(k_p - 2)\right]}{k_r^2 - 1} \qquad (18)$$

Tadqiq etilgan $k_r = 14{,}4 - 19{,}0$ va $k_p = 1{,}4$ qiymatlar oralig‘ida ushbu koeffitsiyent deyarli o‘zgarmaydi hamda: $K = 0{,}5959 - 0{,}5980$ qiymatlarni qabul qiladi.

Shuni hisobga olgan holda, 4-rasmda tunnel gumbazining bevosita yaqinida paxta g‘aramida hosil bo‘ladigan kuchlanishlarning chiziqli bog‘liqliklari keltirilgan.



4-rasm. Havo tunneli gumbazi yuzasida ($r = r_2$) paxta g‘arami massasining hosil qiladigan p_1 bosimiga bog‘liq holda radial kuchlanish σ_r, aylanma (halqasimon) kuchlanish σ_t hamda kuchlanish intensivligi σ_i ning o‘zgarish bog‘liqligi

Hisoblash natijalariga ko‘ra, paxta g‘arami massasidan hosil bo‘ladigan p_1 bosimiga bog‘liq ravishda: radial kuchlanish $\sigma_r = 16{,}8 - 28\ kPa$, aylanma (halqasimon) kuchlanish - $\sigma_t = 7{,}2 - 12\ kPa$, kuchlanish intensivligi - $\sigma_i = 14{,}6 - 24{,}3\ kPa$.

Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, paxta g‘arami massasidan hosil bo‘ladigan p_1 bosim 12 kPa dan 20 kPa gacha oshganda radial kuchlanishning mutlaq qiymati 16,8 kPa dan 28,0 kPa gacha, aylanma kuchlanish 7,2 kPa dan 12,0 kPa gacha, kuchlanish intensivligi esa 14,6 kPa dan 24,3 kPa gacha chiziqli ravishda ortadi. Bunda eng katta qiymat radial siquvchi kuchlanishga to‘g‘ri kelib, u tunnel gumbazi atrofidagi paxta qatlamining kuchlanish holatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Maksimal hisobiy bosimda kuchlanish intensivligining 24,3 kPa dan oshmasligi k_p=1,4 xavfsizlik koeffitsiyenti qabul qilinganda havo tunnelining ishonchli shakllanishi va uning barqarorligini ta’minlash mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi.

Takomillashtirilgan tunnel shakllantiruvchi qurilmaning regressiya modelini qurishda paxta g‘aramning balandligi, qayishqoq materialning qalinligi va qayishqoq materialdagi havoning bosimini chigitning mexanik shikastlanganligiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Tajriba o‘tkazish shartlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajribaning rejalashtirish sharti

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			O‘zgarish oralig‘i
			-1	0	+1	
1	G‘aramni balandiligi, *m*	x_1	4	6	8	2
2	Qayishqoq material qalinligi, *mm*	x_2	200	250	300	50
3	Qayishqoq materialdagi havoning bosimi, MPa	x_3	0,16	0,18	0,2	0,02

Chiquvchi parametr sifatida chigitning mexanik shikastlanganli (u_1) olamiz. Buning uchun rejalashtirish matritsasi asosida har bir sharoitda 3 marta qaytalikda tajribalar o‘tkazamiz. Bu holda tajribalar soni N=2^3=8, tajribalar takrorlanishlar soni

$m = 3$ni hisobga olsak, umumiy tajribalar soni $N \cdot m = 24$ bo‘ladi.

Chiquvchi parametrning tajribaviy natijalari va dispersiyalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Rejalashtirish matritsasi, tajriba va hisobiy natijalar

u	Omillar			Chigitning mexanik shikastlanganligi			$\bar{u}_u$	S_u^2
	x_1	x_2	x_3	u_{u1}	u_{u2}	u_{u3}		
1	-	-	-	5.5	6.5	6.4	6.14	0.3134
2	+	-	-	6.9	6.3	7.1	6.77	0.1733
3	-	+	-	7.6	6.5	6.8	6.97	0.3319
4	+	+	-	7.6	7.4	7.8	7.6	0.0484
5	-	-	+	6.8	6.6	6.7	6.7	0.0110
6	+	-	+	7.6	7.5	7.4	7.5	0.0091
7	-	+	+	6.9	6.8	7.5	7.07	0.1087
8	+	+	+	7.6	6.5	7.6	7.21	0.4296

Tajriba natijalarini, kompyuter programmalaridan foydalanilgan holda, dastlabki ishlash natijasida Fisher kriteriyasi bo‘yicha barcha chiqish parametrlarini yetarli darajada tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

$$y_R = 7 + 0.28 \cdot x_1 + 0.22 \cdot x_2 + 0.13 \cdot x_3 - 0.2 \cdot x_2 \cdot x_3$$


Tajriba natijalariga ko‘ra chigitning mexanik shikastlanish ko‘rsatkichi 6,14 % dan 7,60 % gacha o‘zgarishi aniqlanib, eng optimal parametr sifatida qayishqoq material qalinligi 250 mm, undagi havoning bosimi 1,8 bar va g‘aram balandligi 6 m bo‘lishi tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“G‘aram maydonlariga tunnel hosil qilishning tajribaviy tadqiqoti”** deb nomlangan uchunchi bobida g‘aram maydonidagi paxtani saqlashda tola va chigitning sifat ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi tahlili, paxta g‘aram maydonlariga tunnel hosil qilish jarayonini tola va chigitning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri, g‘aram maydonlariga tunnel hosil qilish uskunasida tajribaviy izlanishlar olib borish va ratsional qiymatlarini aniqlash ishlari olib borildi.

Mustaqillik PTK dan qo‘lda 10x14 metr o‘lchamdagi g‘aramda tunnel qazish jarayonidan olib kelingan C65-24 seleksiyasidagi I nav 2 sinfdagi dastlabki namligi 12 % bo‘lgan paxta g‘aramning ustki va pastki qismlaridan olingan namunalarning paxta tolasining HVI sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi.

G‘aramning ustki qismidan olingan paxta tolalarning fizik-mexanik va texnologik sifat ko‘rsatkichlari pastki qatlamlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, tolaning uzunligi g‘aramning ustki qatlamida quyi qatlamlarga nisbatan mos ravishda 1 nuqtada 1,79 mm ga, 2 nuqtada 0,96 mm ga, 3 nuqtada 0,56 mm ga va 4 nuqtada 0,11 mm ga uzunligi aniqlandi. G‘aramning pastki qismida olingan namunalarning kalta tolalar indeksi yuqori bo‘lib, nuqtalar bo‘yicha mos ravishda 9,5; 8,0; 7,7 va 7,1 gacha, g‘aramning ustki qismida esa 6,8 ni tashkil etdi. Demak, zichlikning

oshishi tolaning uzunligini qisqarishiga va kalta tolalar miqdorini oshishiga olib kelib, tolaning sifatini pasaytirmoqda (5-rasm).




5-rasm. G‘aramning qismlari bo‘yicha tolaning uzunligini o‘zgarishi

Tadqiqot 10x14 metr o‘lchamdagi paxta g‘aramining ustki va pastki qatlamlaridan olingan C65-24 seleksiyasining I nav 2 sinfdagi paxta namunalari bo‘yicha chigitning shikastlanganlik darajasi aniqlandi.

Tajriba jarayonida har bir qatlamdan 3 martalik takroriy namunalar olinib, 100 gramm namunadagi chigitlar soni hamda shikastlangan chigitlar soni hisoblab chiqildi. O‘rtacha shikastlanish darajasi 1,4–1,6 % ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar g‘aramning pastki qismida chigitlarning shikastlanish darajasi nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi.

Mustaqillik PTKda qo‘l yordamida tunnel qazish jarayonida I nav 2 sinfdagi paxtadan olingan namunalarning HVI tizimidagi sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Paxta g‘aramining yon tomonidan tunnelning uzunligi bo‘yicha 8 metrgacha kirib borishi bilan g‘aramning zichligini oshishi natijasida tolaning o‘rtacha uzunligini
27,79 mm dan 26,97 mm gacha kamayishi aniqlandi. Paxta g‘arami shakllanib bo‘lgandan so‘ng ma’lum muddatda cho‘kadi. Cho‘kish jarayonida tolalar o‘zaro bir biri bilan ishqalanishi hamda bu jarayonda iflosliklarni qatnashishi natijasida tolalarning o‘rtacha uzunligi kamayishiga olib kelmoqda (6- rasm).




6-rasm. Tunnelni qo‘lda qazish jarayonidan olingan namunadagi tola uzunligining o‘zgarishi

Tunnelning uzunligi bo‘yicha g‘aramning markazi tomon yaqinlashgan sari kalta tolalar miqdori oshmoqda. Bunga asosiy sabab g‘aramning shakllanish jarayonida uning cho‘kishida iflosliklar bilan paxtaning o‘rtasidagi ishqalanishi va zichlikning oshishi natijasida kalta tolalar vujudga kelmoqda (6-rasm). Bu yaqqol aniqlanayotgan kamchilik bo‘lsa, tola va chigitda hosil bo‘lgan shikastlanishlar paxtani dastlabki ishlash jarayonida qo‘shimcha nuqsonlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Asosan erkin tola, chigit po‘stloqli tola kabi nuqsonlar ko‘payadi.

“GTG AGRO” MCHJ tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida paxtani 25x14 m o‘lchamli g‘aramida qo‘l yordamida tunnel qazish jarayonida mahsulotning sifat ko‘rsatkichlarini o‘zgarishi tadqiq etildi.


Tadqiqotlar S65-24 seleksiyadagi II nav 2 sinfdagi paxta g‘aramida o‘tkazildi. G‘aramda uning 25 m uzunligi bo‘yicha qo‘lda tunnel ochildi. G‘aramning yon tomonidan uning markazigacha 12 m chuqurlikkacha namunalar olindi.



7-rasm. Tunnelni qo‘lda qazish jarayonidan olingan namunadagi tola uzunligi va kalta tola indeksining o‘zgarishi

Tolaning uzunligi (Len) bo‘yicha sezilarli kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Yuqori qatlamlarda o‘rtacha 1.133 dyuymni tashkil etgan uzunlik pastki qatlamlarga kelib 1.060 dyuymgacha kamayadi (7-rasm). Bu holat tolalarga mexanik ta’sirlar natijasida ularning qisqarishi yoki sinishi bilan izohlanadi. Uzunlik bo‘yicha bir tekislik indeksi (Unf) ham 83.8 % dan 81.6 % gacha kamayib, tolalarning bir xil emasligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.


Paxta g‘aramida mashina yordamida tunell ochishda mahsulotning sifatini o‘zgarishini tadqiq etish uchun Andijon viloyati Ulug‘nor tumani Mingbuloq PTM da izlanishlar olib borildi. Tadqiqotlarda An-35 seleksiyasidagi II nav 2 sinfdagi paxta joylashgan 10x14 o‘lchamdagi g‘aramga tunell ochildi. Tunell ochish jarayonida chiqqan paxtadan namunalar olindi va sifat ko‘rsatkichi HVI tizimida aniqlandi.



9-rasm. Tunnelni mashinada qazish jarayonidan olingan namunadagi tola uzunligining o‘zgarishi

Tolalarning uzunligi (Len) bo‘yicha kamayish tendensiyasi kuzatildi. Yuqori qatlamlarda o‘rtacha 1.149 dyuymni tashkil etgan uzunlik ichki qatlamlarga kelib 1.090 dyuymgacha kamayadi. Bu esa tolalarning mexanik ta’sir ostida qisqarishi yoki sinishi bilan izohlanadi. Uzunlik bo‘yicha bir tekislik indeksi (Unf) ham 83.9 % dan 82.2 % gacha pasayib, tolalar strukturaviy bir xilligining yomonlashayotganini ko‘rsatdi. Kalta tolalar indeksi (SFI) ham 7.2 % dan 8.5 % gacha ortib, tolalarning sinishi kuchayishi ro‘y bermoqda. Natijada yigiruvchanlik indeksi (SCI) 123.7 dan 112.1 gacha pasaydi, bu esa ip yigirish jarayonida sifatning yomonlashishiga olib keldi.

“GTG AGRO” MCHJ tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida 10x14 metr o‘lchamli g‘aram maydonida qo‘lda tunnel qazish jarayonida hosil bo‘lgan mexanik ta’sir natijasida C65-24 seleksiyasi I nav 2-sinf paxta chigitlarining shikastlanish darajasi tunnel uzunligi bo‘ylab (1 m dan 8 m gacha) o‘rganildi.




10-rasm. Chigitni mexanik shikastlanish darasini qo‘lda qazilgan tunellning uzunligi bo‘yicha o‘zgarish gistogrammasi (10x14 m o‘lchamli g‘aram)

Tunnel ichkarisiga kirgan sari paxta massasining zichligi va mexanik ta’sir ortishi chigitlarning shikastlanish darajasini oshiradi, shikastlanishning asosiy ulushi singan chigitlar hissasiga to‘g‘ri keladi, 6 metrdan keyingi shikastlanish darajasi keskinlashib, texnologik jarayonni optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi, qo‘lda tunnel qazish jarayonida mexanik ta’sirni kamaytirishga qaratilgan konstruktiv yoki texnologik takomillashtirishlar kiritish paxta chigitining sifatini saqlab qolish uchun


muhim hisoblanadi.

Mustaqillik PTK da 25x14 m o‘lchamli g‘aram maydonida qo‘lda tunnel qazish jarayonidan olib kelingan C65-24 seleksiyasi II nav 2-sinf paxta chigitini shikastlanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Tajribalar har bir metr kesimida uch martalik takroriy namunalash asosida olib borilgan bo‘lib, natijalar o‘rtacha qiymatlar orqali umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari 11-rasmda keltirilgan.

Chigitning umumiy shikastlanish darajasi tunnel bo‘ylab quyidagi qonuniyatni namoyon etdi: 1–3 metr oralig‘ida 5,10–5,34 %ni, 4–6 metr oralig‘ida 5,45–5,96 % ni, 7–10 metr oralig‘ida 6,07–6,51 % ni, 11–12 metr oralig‘ida 6,21–6,87 % ni tashkil etgan. Ayniqsa, 12 metr kesimida shikastlanish darajasi 6,87 % gacha yetgani kuzatilib, bu texnologik nuqtai nazardan shikastlanish yuqori zona ekanini ko‘rsatdi.



11-rasm. Chigitni mexanik shikastlanish darasini qo‘lda qazilgan tunellning uzunligi bo‘yicha o‘zgarish gistogrammasi (25x14 m o‘lchamli g‘aram)



12-rasm. O‘lchami 10x14 m bo‘lgan paxta g‘aramiga mashida tunell qazishda olingan paxta chigitining mexanik shikastlanishini tunell chuqurligi bo‘yicha o‘zgarish gistogrammasi

Mingbuloq paxta tayyorlov maskanida 10x14 metr o‘lchamli paxta g‘aramida mashina yordamida tunnel qazish jarayonida An-35, 2/2 navli paxta chigitlarining mexanik shikastlanish darajasi tunnel uzunligi bo‘ylab hamda tunnel devori zonasida o‘rganilgan. Tadqiqot har bir kesimda uch martalik takroriy namunalash asosida olib borilib, natijalar o‘rtacha qiymatlar orqali umumlashtirilgan.

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki (12-rasm), mashina yordamida tunnel qazishda sinish jarayoni ustun bo‘lib, ezilish ikkilamchi xarakterga ega. O‘rtacha qiymatlar asosida aniqlangan umumiy shikastlanish darajasi tunnel bo‘ylab quyidagi

dinamikani namoyon etadi:1 metrda 6,22 % ni, 2–4 metr oralig‘ida 6,38–6,57 % ni, 5–6 metr oralig‘ida 6,87–6,91 % ni, 7–8 metr oralig‘ida 7,36–7,46 % ni va tunnel devoridan olingan namunalarda 8,25 % ni tashkil etdi.

Dissertatsiya ishining **“G‘aram maydonlariga tunnel hosil qilish uskunasini yaratish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobda tajriba o‘tkazish metodikasi, tajriba sinovi natijalari va iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.

Takomillashtirilgan paxta g‘aramidagi havo tunnelini shakllantirish uchun yangi qurilmaning umumiy ko‘rinishi 13-rasmda keltirilgan.



13-rasm. Qayishqoq material bilan qoplangan mobil tunell hosil qiluvchi qurilmaning umumiy ko‘rinishi



14-rasm. Paxta g‘aramiga o‘rnatilgan qayishqoq material bilan qoplangan mobil tunell hosil qiluvchi qurilmani umumiy ko‘rinishi

